

**AMALIY SAN'ATDA USTOZ-SHOGIRD TIZIMI: TARIX VA
AN'ANALAR**

Komiljonova Kamola Mansur qizi,

Guliston davlat universiteti talabasi

e-mail: komiljonovakamola@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mamatqulova Sitora Komil qizi,

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

e-mail: msitora386@gmail.com

Annotatsiya: amaliy san'at turlarida shakllangan ustoz-shogird an'alarining tarixiy ildizlari, hozirgi davrgacha saqlanib qolgan shakllari va ularning tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyati tahlil qilinib, bu an'analarni zamonaviy ta'lim tizimida rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, ustoz-shogird an'anasi, hunarmandchilik, kashtachilik, kulolchilik, zardo'zlik, mahorat, an'anaviy ta'lim, madaniy meros, san'at tarbiyasi.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari hamda ilm-fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar asosida Vatanimizni jahon andozalari asosida har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun dunyoga mashhur bo'lgan betakror san'at durdonalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ajdodlarimizning tajribalarini yorituvchi adabiyotlar hanuz yetarli emas. Ayniqsa, bu boy merosning bugungi ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari, ustoz-shogird an'anasi asosida faoliyat yurituvchi ustaxonalar va qo'shimcha ta'lim muassasalarida to'liq aks etmasligi – yosh



avlodning axloqiy madaniyati, bilim saviyasi hamda umuman ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy merosdan to'g'ri va samarali foydalanish zarur. Bu esa yoshlarda ajdodlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborni kuchaytiradi, ota-onaga, ustozga, tengdosh va jamiyatga nisbatan hurmatni mustahkamlaydi hamda hunarni chuqur o'zlashtirishda asosiy motivatsion omil sifatida xizmat qiladi.

O'zbek xalq amaliy san'ati o'zining qadimiy tarixi, boy va serqirra madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona kabi qadimiy shaharlardagi har bir tarixiy obida va xalq amaliy bezak san'atining har bir namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan betakror va bebaho asarlar bo'lib, jahon madaniy merosi durdonalari qatoridan munosib o'rin egallagan.

Asrlar davomida shakllangan madaniy va ma'naviy merosimiz, xususan o'zbek xalq amaliy bezak san'atining rivojlangan turlari – naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, tosh taroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik va ularni yaratgan ustalarning asl nomlari, o'ziga xos maktablari hamda uslublari, afsuski, sobiq Sho'ro tuzumi davrida asta-sekin yo'qolish xavfi ostida qolgan edi. Mustaqillik yillarida san'atimizni qazyta tiklash va kelajak avlodga yetkazish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasida xalqimiz asrlar davomida yaratgan amaliy bezak san'atini asrab-avaylash, qadrlash, undan samarali foydalanish, shuningdek, bu san'at orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish va ularni yuksak madaniyatli shaxslar etib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur allomalar, shoirlar va musavvirilar o'z asarlarida insonni go'zallik sari intilishga da'vat etganlar.

Bobokalonimiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayangan holda matematika, geometriya, me'morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at va xattotlik kabi sohalarni



rivojlantirishga alohida e'tibor bergan. U shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug'vor tarzda bunyod etishga intilgan.

IX-X asrlarda Turon hududida naqqoshlik san'ati jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Me'moriy obidalarni bezashda g'isht qadab naqsh solish san'ati yuqori darajada taraqqiy etgan. Ayniqsa, binolarning ichki qismlarida ganch o'ymakorligi va yog'ochdan ishlangan bezaklar keng qo'llanilgan bo'lib, bu yo'nalish san'atda yuksak estetik darajaga erishgan. Xususan, maqbaralarning peshtoqlari, devor va ravoqlari murakkab ganch naqshlar bilan noziklik va nafislik bilan bezatilgan.

XVIII asr oxiri XIX asrda Qo'qon, Farg'ona, Buxoro kabi shaharlarda yetuk xalq ustalari voyaga yetdi. Shu davrda naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, chilangarlik va boshqa xalq amaliy san'ati turlari jadal rivojlandi. Qadimdan hunar muqaddas sanalib, har bir xalq kelajak avlodlariga o'zining noyob hunar an'analari bilan faxrlanib meros qoldirgan. O'zbekiston qadimdan hunarmandchilikning yirik markazlaridan biri bo'lgan. Xususan, Andijon, Samarqand, Urgut, Farg'ona vodiysi, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Chust kabi hududlar hunarmandchilik faoliyatining yirik markazlariga aylangan.

Naqqoshlik san'ati vakillari qadimda xalq ustalari orasida eng bilimdon kishilar hisoblangan. Chunki ular madrasalarda tahsil olib, adabiyot, tarix, matematika, kimyo va musiqa fanlarini chuqur o'zlashtirganlar. Naqqoshlik texnologiyasi avlodlardan avlodga og'zaki tarzda o'tgan bo'lib, naqsh yaratish sir-asrorlari yozma ravishda emas, balki ustoz-shogird an'anasi orqali uzatilgan. Har bir shogird usta bo'lganidan so'ng, o'z malakasini keyingi avlod vakiliga o'rgatish orqali hunar davomiyligini ta'minlagan.

Shunday qilib, naqqoshlik san'ati ham an'anaviy ravishda rivojlanib kelgan. Naqqoshlar shogirdlikka o'z farzandlarini yoki qarindosh-uruqlarining farzandlarini olishgan. Shogirdlikka bolalar 7-8 yoshdan boshlangan bo'lib, o'qish va o'rganish jarayoni 7-12 yil davom etgan. Ustoz shogirdlari bilan kunduzi ishlagan, kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod o'rgatilgan. Shogirdlar, shuningdek, xandasa (geometriya) va kimyo fanlarini ham o'rganganlar. Shogird mustaqil ishlashni o'rganganidan so'ng, ustozlar uning ishlarini muhokama qilib, "usta" unvonini



berganlar. Naqqoshning o'g'li kasbi ota-ona tomonidan yoshlikdan o'rgatilgan bo'lib, bu kelajakda malakali hunarmand bo'lishga zamin yaratgan. Agar ustozning o'qituvchi yoki farzandi bo'lmasa, u kasbni eng yaqin qarindoshlarining farzandlariga o'rgatgan. Xulosa qilib aytganda, naqqoshlik kasbi avloddan-avlodga meros sifatida o'tgan va an'anaviy yo'l bilan rivojlanib kelgan. Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urf-odatlariga rioya qilingan. Bolani ustozning oldiga olib borishda o'ziga xos tantanali marosim o'tkazilgan. Bolaning ota-onasi hamda qarindosh-urug'lari usta oldiga keldilar va "bolaning go'shti sizniki, suyagi bizniki" degan iboralar bilan bolani ustaning ixtiyoriga topshirishgan. Ustoz bolaga hunarni o'rgatish bilan birga, o'qish davomida uning oziq-ovqat bilan ta'minlanishini ham ta'minlagan. Kasbni o'rgatish jarayoni beparvo o'tkazilgan, ya'ni u pullik emas edi.

Shunday qilib, naqqoshlik kasbi an'anaviy shaklda, o'zaro mehnat, hurmat va o'zaro qarindoshlik aloqalariga asoslanib rivojlangan. Ustoz-shogird munosabatlari, shuningdek, naqqoshlarning hunarini avloddan-avlodga o'tkazishning eng muhim yo'li bo'lgan. Shogirdlarning o'rganish jarayoni nafaqat amaliy mahorat, balki ilmiy bilimlar, xandasa va kimyo kabi sohalarda ham chuqur bilim olishni ta'minlagan. O'qishning 7-12 yil davom etishi, shogirdning mustaqil ishlashga qobiliyatli bo'lishi va ustozning shogirdiga nisbatan mas'uliyatini ko'rsatadi. Kasbni o'rgatish jarayonida naqqoshlar o'z o'quvchilariga nafaqat hunarni, balki odob-axloq, mehnatsevarlik, hamda ijtimoiy qadriyatlarni ham o'rgatganlar. Bu esa naqqoshlik kasbining uzoq muddat davomida yashab qolishiga imkon yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, naqqoshlik kasbi nafaqat hunarmandchilikni rivojlantirish, balki jamiyatda ta'lim, madaniyat va an'analarni saqlashda muhim rol o'ynagan. Kasbning avloddan-avlodga o'tishi, an'anaviy o'qitish uslubi, va ustoz-shogird munosabatlari o'ziga xos, tarbiyaviy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan. Shunday qilib, naqqoshlik kasbi jamiyatda ijtimoiy va madaniy merosning saqlanishiga hissa qo'shgan va bugungi kunda ham uning ta'siri davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Qosimov. Naqqoshlik. T.: "O'qituvchi", 1982.
2. N.Abdullayev. San'at tarixi. T.: "O'qituvchi", 1986.



3. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: "Mehnat", 1991.
4. Nabi, Jumaboyev. "SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN TA'LIM-TARBIYADA FOYDALANISHNING ZARURIYATI." *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal* 2.1 (2024): 275-277.
5. Tojikulovna, Ibodullayeva Zarifa, and Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. "AMALIY SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.6 (2025): 135-137.
6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan pedagogik tadqiqotlarda tarbiyaviy foydalanish muammosining talqini". *Favqulodda: Ta'limdagi kashfiyotlar va umrbod ta'lim jurnali (EJEDL)* 3.1 (2024): 9-9.
7. Kazakbayevich K. E., Baxromjon o'g'li AB FARG 'ONA VODIYSI KULOLCHILIGI AN'ANALARI //YANGILIK TADQIQOTLARNING NAZARIYASI VA ANALITIK ASPEKTLARI. – 2025. – V. 3. – No 35. – B. 94-101.
8. Xoljigitovich, M. I. (2025). INTERYERDA KOSHINLI BEZAK TURLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *MASTERS*, 3(3), 41-46.